



# TARAKKIYAT TADQIQOTLARI | ИССЛЕДОВАНИЯ РАЗВИТИЯ DEVELOPMENT STUDIES

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНЛАР | НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ КОНФЕРЕНЦИИ  
SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCES

Volume II, Issue-14, (February) 2024

Journal homepage: <https://inashr.uz/index.php/rid>

**MELIBAYEV Xudoyberdi Nematullayevich**

*Bojxona instituti  
magistranti*

## O‘ZBEKISTONDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI!

Hozirgi globallashtirish zamonaviy mintaqalar va davlatlararo integratsiya jadallashib borayotgan murakkab bir sharoitda korrupsiya barcha mamlakatlarda ham qator muammolarni keltirib chiqarib, jamiyatni ich-ichidan yemirib, parokanda qilib tashlash xavfini solmoqda. Binobarin, bugun kattami-kichikmi, boymi-kambag‘alimi, qudratlimi-kuchsizmi biron-ta davlatni korrupsiyadan xoli hudud, deb aytolmaymiz.

BMT ma’lumotlariga ko‘ra, hozirda korrupsiyaning dunyo miqyosidagi zarari **3 trillion** AQSh dollariga yaqin miqdorni tashkil qilmoqda, uning salkam **1 trillion** AQSh dollarini aynan pora berish va olish holatlari tashkil etadi. Bunda, global miqyosda korrupsiya tufayli davlat xaridlari fondlarining **25 foizgacha** qismi yo‘qotiladi. O‘z navbatida, ushbu raqam jahon yalpi ichki mahsulotining **5 foizini** tashkil etishi korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining salbiy holatda saqlanib qolayotganligidan dalolat beradi.

Mazkur muammoning oqibatlarini chuqur anglagan holda davlatimiz Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon banki, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti kabi nufuzli xalqaro tuzilmalar bilan yaqin hamkorlik qilib kelmoqda.

O‘zbekiston 2021-yilda Xalqaro Ochiq ma’lumotlar xartiyasiga a’zo bo‘ldi. Mamlakatimiz Istanbul harakatlar dasturi, Global operativ tarmoq, Yevroosiyo va ko‘plab platformalarda samarali ishtirok etib kelmoqda.

Jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan davlat siyosatining samaradorligini oshirish maqsadida “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni bilan **Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi** tashkil etildi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish, davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida korrupsiogen omillarga chek qo‘yishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda.

Davlat organlari zimmasidagi vazifa va funksiyalarni bajarishda yuzaga keladigan korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholash tizimini takomillashtirish hamda davlat xizmatiga halollik standartlarini joriy etish bo‘yicha tizimli nazorat ishlar olib borildi.

Xususan, 2020-2023-yillar davomida nazorat qiluvchi organlar tomonidan **7403 ta** jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari ko‘rib chiqilishi, **100 dan** ortiq o‘rganish va tekshiruvlar o‘tkazilishi, aniqlangan korrupsiyaviy holatlar yuzasidan huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan Jinoyat Kodeksining tegishli moddalari bilan **101 ta** jinoyat ishi va **196 ta** ma’muriy ish yuritilishi, davlat xaridlariga oid qonunchilik talablariga rioya qilinishi yuzasidan **622 mlrd** so‘mlik xato va kamchiliklar aniqlanishi, korrupsiyaviy huquqbuzarliklar shart sharoitlarini bartaraf qilishga qaratilgan **640 ta** taqdimnoma va **200 ta** so‘rovnomalar kiritilgan.

Olib borilgan keng ko'lamli islohotlar natijasi o'laroq, BMT korrupsiyaga qarshi konvensiyasi va Doha deklaratsiyasi ijrosida 2016-yil dekabr oyida tashkil etilgan **“Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha yuksak mukofoti”**ning 2023-yil dekabr oyida O'zbekistonda o'tkazildi.

Mazkur mukofotning o'tkazilishidan ko'zlangan asosiy maqsad, dunyo miqyosida korrupsiyaga qarshi eng samarali va motivatsion chempionlarni tanlash nazarda tutiladi.

Mukofot, Qatar Amiri Shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy homiyligida qonun ustuvorligi va korrupsiyaga qarshi kurash markazi tomonidan BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi bilan hamkorlikda tashkil etiladi va topshiriladi.

#### **Mukofot 5 toifada topshiriladi:**

- korrupsiyaga qarshi kurashishdagi yutuqlari hamda uzoq yilik faoliyati uchun;
- korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishidagi ta'lim va akademik tadqiqotlar uchun;
- korrupsiyaga qarshi kurashishga oid yoshlar tashabbuslari va daxldorligi uchun;
- korrupsiyaga qarshi kurashishga oid innovatsiyalar va jurnalistik materiallar uchun;
- sportni korrupsiyadan holi qilish.

2023-yilning 19-dekabr kuni ilk marotaba O'zbekistonda o'tkazilgan **“Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha yuksak mukofoti”**ning tantanali taqdirlash marosimida Muhtaram Prezidentimiz tomonidan bir qator tashabbuslar ilgari surildi:

- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2030-yilgacha mo'ljallangan Milliy strategiya qabul qilish;

- davlat idoralari faoliyatining shaffofligi va hisobdorligi yanada oshirish;
- korrupsiya muammolari bo'yicha mintaqaviy tadqiqot markazi tashkil etish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining salohiyat va imkoniyatlari yanada oshirish;
- korrupsiya holatlari bo'yicha “dastlabki o'rganish” – korrupsion surishtiruv instituti joriy etish;

- BMTning Korrupsiyaga qarshi ta'lim va yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish Global Resursi dasturi O'zbekistonda keng joriy etish;

- Toshkent shahrida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Global media forum o'tkazish kabilar.

Tadbirda Muhtaram Prezidentimiz tomonidan so'zlangan nutqda, **“Korrupsiya illati hatto eng qudratli davlatlarni ham jar yoqasiga olib kelgan. Korrupsiyaga qarshi kurashish har bir sof vijdonli insonning, demokratik jamiyat va davlatning muqaddas burchidir”** deb ta'kidlab o'tdi.

Hukumat faoliyatining ochiq va oshkoraligini ta'minlash va mas'uliyatini oshirish, byurokратиyani kamaytirish va davlat xizmatlarini soddalashtirish, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan preventiv mexanizmlarni amaliyotga keng joriy etilmoqda. Xususan, barcha davlat idoralari komplaens va samaradorlikni baholash reyting tizimlari yo'lga qo'yilgan va davlat xaridlari to'liq raqamlashtirilgan.

Shu o'rinda, joriy yilning yanvar oyida Transparency International 2023-yilgi korrupsiyani qabul qilish indeksini e'lon qildi va natijada 180 ta davlat orasida O'zbekiston **33 ball bilan 121-o'rinni** egalladi. Ahamiyatlisi, mamlakatimiz ballarini **2 taga** oshirib, o'rinni **5 pog'onaga** yaxshilashga (2022-yilda **126-o'rin, 31 ball**) muvaffaq bo'ldi. **O'zbekiston Korrupsiyani qabul qilish indeksida** so'nggi **10 yil** davomida ijobiy natijalarga erishayotgan eng yaxshi davlatlar qatorida e'tirof etildi. O'zbekiston 2014-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davrda o'z natijasini 15 ballga yaxshilagan yagona davlat sifatida qayd etilgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, O'zbekistonning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi davlat siyosati korrupsiyaga oid jinoyatlar oqibati emas, balki uni keltirib chiqarayotgan sabab va shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish borasida tizimli choralar ko'rishga qaratilmoqda. Mazkur tizimni mamlakatning korrupsiyaga qarshi kurashishda qo'llanilayotgan yangi institutsional chora-tadbirlar majmui sifatida baholashimiz mumkin.